

---

## O'tkaziladigan saylovlarda saylovchilarning ovoz berish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlari o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi mazkur saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasi erkin bildirilishini ta'minlovchi kafolatlarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi. Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga asosan saylov kuniga qadar yoki saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylash huquqiga egadir. Fuqaro ovoz berish binosiga kelgach, saylovchi uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Biron-bir sababga ko'ra saylovchilar ro'yxatiga familiyasi kirmay qolgan saylovchilarning familiyalari saylovchining shaxsi, fuqaroligi va yashash joyini tasdiqlovchi hujjat asosida saylovchilar ro'yxati ilovasiga kiritiladi. Ovoz berish saylov kuni soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni saylovdan kamida o'n kun oldin xabardor qiladi. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarida huzurida tuzilgan saylov uchastkalarida ovoz berish saylov kuni ushbu saylov uchastkalari joylashgan yerdagi mahalliy vaqt bilan soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarida huzurida, harbiy qismlarda, sanatoriylarda, dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olin va borish qiyin bo'lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalarida uchastka saylov komissiyasi, agar ro'yxatga kiritilgan barcha fuqarolar ovoz berib bo'lgan bo'lsa, ovoz berish tugaganligini istalgan vaqtda e'lon qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan saylov uchastkalarida saylov qutilarini soat 20.00 dan oldin ochish va ovozlarni sanab chiqishga yo'l qo'yilmaydi. Saylovchi saylov byulletenini olgach, uni yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida to'ldiradi. Saylov byulletenini to'ldirish chog'ida ovoz beruvchi shaxsdan boshqa shaxslarning hozir bo'lishi taqiqlanadi. Saylov byulletenini mustaqil ravishda to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi o'z xohishiga ko'ra yashirin ovoz berish kabinasiga yoki xonasiga boshqa shaxsni taklif qilishga haqli, bundan saylov komissiyasi tarkibiga kiradigan shaxslar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari mustasno. Saylovchi o'zi yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi, siyosiy partiyaning nomi ro'parasida, o'ng tomonda joylashgan bo'sh kvadratga «+» yoki «√» yoxud «x» belgisini qo'yadi. Ovoz beruvchi to'ldirilgan saylov byulletenini saylov qutisiga tashlaydi. Buzib qo'yilgan saylov byulleteni saylovchining iltimosiga ko'ra yangisiga almashtirilishi mumkin. Buzib qo'yilgan saylov byulletenlari hisobga olinishi, bekor qilinishi (yuqori chap burchagini kesish yo'li bilan) lozim va alohida saqlanadi. Ayrim saylovchilar sog'lig'ining holatiga yoki boshqa sabablarga ko'ra ovoz berish binosiga kela olmagan hollarda, tegishli uchastka saylov komissiyasi ovoz berishni ushbu saylovchilarning iltimosiga binoan ular turgan joyda tashkil etadi. Tegishli komissiyaning kamida ikki nafar a'zosi ko'chma saylov qutisi bilan saylovchining turgan joyiga yuboriladi, ular saylovchining xohish-irodasi sir saqlanishiga rioya etilgan holda ovoz berish amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari hozir bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va chet davlatlarning vakolatli davlat hokimiyati organlari bilan kelishuvlarga muvofiq chet davlatlarning aholi zich joylashgan hududlarda muddatidan oldin ovoz berish saylovchining turgan joyida o'tkazilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining chet davlatdagi diplomatik va boshqa vakolatxonasi huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyasi saylovchilarning turgan joyida ovoz berish vaqti hamda joyi to'g'risida qaror qabul qiladi va bu haqda saylovchilarni, kuzatuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor etadi. Saylovchilarning turgan joyida ovoz berish O'zbekiston Respublikasining chet davlatdagi diplomatik va boshqa vakolatxonasi huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyasining kamida ikki nafar a'zosi hozirligida o'tkaziladi. Ovoz berish tugaganidan keyin uchastka saylov komissiyasi a'zolari ko'chma ovoz berish qutisini ochadi, uning ichidagi saylov byulletenlarini sanamasdan maxsus qopga joylaydi, qopni surg'uchlaydi va bu haqda dalolatnoma tuzadi. Saylov byulletenlari solingan qop surg'uchlangan holda dalolatnoma bilan birga saylov uchastkasiga olib boriladi va saylov kuni ovozlarni sanab chiqish jarayoni boshlanguniga qadar saqlanadi. O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi kelajak avlod oldidagi mas'uliyatini anglagan holda mamlakatimizda o'tkaziladigan saylovlarda munosib nomzodlarga ovoz berish yo'li orqali davlat va jamiyat rivoji uchun hissa qo'shishini unutmazligi lozim.

---

2024-10-24 16:19:39